

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2026-yil 2-son)



PEDAGOGIKA  
PEDAGOGY

**IJTIMOY REABILITATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA  
FUNKSIONAL YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.096>

*Shodmonova Zilola Bozorovna*

*Qarshi davlat universiteti, Pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi*

*E-mail: [shodmonova.2020@mail.ru](mailto:shodmonova.2020@mail.ru)*

*Tel: 998-90-5186535*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarni ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida funksional yondashuvga asoslangan ta’lim texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Funksional yondashuvning mohiyati, uning ijtimoiy reabilitatsiya sohasidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari funksional yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim texnologiyalari bo‘ljak mutaxassislarining ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** funksional yondashuv, ijtimoiy reabilitatsiya, ta’lim texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, amaliy tayyorgarlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы образовательных технологий, основанных на функциональном подходе, в процессе подготовки студентов к деятельности в области социальной реабилитации. Раскрывается сущность функционального подхода и его значение в сфере социальной реабилитации. Также анализируются возможности формирования профессиональных компетенций у студентов посредством практико-ориентированных образовательных технологий. Результаты исследования показывают, что образовательные технологии, организованные на основе функционального подхода, повышают готовность будущих специалистов к деятельности в области социальной реабилитации.

**Ключевые слова:** функциональный подход, социальная реабилитация, образовательные технологии, профессиональная компетентность, практическая подготовка.

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological foundations of educational technologies based on a functional approach in preparing students for work in the field of social rehabilitation. It explores the essence of the functional approach and its

importance in social rehabilitation. It also analyzes the potential for developing students' professional competencies through practice-oriented educational technologies. The study's results demonstrate that educational technologies based on a functional approach enhance the readiness of future specialists for work in the field of social rehabilitation.

**Keywords:** functional approach, social rehabilitation, educational technologies, professional competence, practical training.

**KIRISH.** Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar sonining ortib borishi ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Nogironligi bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy xavf guruhiga mansub bolalar, keksalar, muammoli oilalar bilan ishlash yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassislarni talab etadi. Shu bois oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak ijtimoiy ish mutaxassislarni ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga samarali tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

An‘anaviy ta‘lim jarayonida ko‘proq nazariy bilimlarga urg‘u berilishi mutaxassislarning real amaliy vaziyatlarda qiynalishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta‘lim jarayonini funksional yondashuv asosida tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Funksional yondashuv talabalarni kelajak kasbiy faoliyatida bajaradigan aniq funksiyalariga tayyorlashni nazarda tutadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Ijtimoiy moslashuv muammosining tibbiy, ijtimoiy-falsafiy tomonlari A.A.Umarov, M.Bekmurodov, K.Tulenova kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib borilgan. Psixolog olimlardan N.S.S‘afayev, O.Dayitov, N.Kamilova ijtimoiy moslashuvning psixologik xususiyatlarini, pedagog olimlardan N.Azizxujayeva, M.Qur‘onov, X.Ibragimov, N.Egamberdiyeva. Sh.Shodmonova, R.Yarmatov kabilar tomonidan o‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyalari, pedagogika oliy o‘quv yurti talabalarida ijodkorlikni shakllantirish masalalari, bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy-shaxsiy rivojlantirishda ma‘naviy-axloqiy va ta‘limiy qadriyatlardan foydalanishning mazmuni va ahamiyati tadqiq etilgan [3, 746-749 b].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan V.Sudakov, I.Vachkova, A.Venger, S.Gaponova, N.Melnikova, A.Shepilovalarning ilmiy izlanishlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ijtimoiy moslashtirishning pedagogik mazmuni, ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari yorigib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida didaktik metodikalarni ta‘lim jarayoniga tadqiq etish uchun ta‘lim metodikalari muammosi psixolog-pedagog olimlardan V.V. Davidov, L.V. Zankov, N.B.Istomina, A.S. Pchelko va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan [4, 64-72].

Innovatsion metodika va texnologiyalar asosida o‘quv-uslubiy harakatlarini shakllantirish yuzasidan xorijiy pedagoglardan K.Meredit, D.Stil, Ch.Templ, S.Uolter, D.Xalpern va boshqalar shug‘ullanganlar.

## **ASOSIY QISM.**

Ushbu olimlar tomonidan funksional yondashuvning nazariy asoslari yoritib berilgan bo‘lsada, hozirgi kunda ham asosiy masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Funksional yondashuv pedagogik jarayonda shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalarini uning kelajak kasbiy faoliyatida bajaradigan funksiyalari bilan uzviy bog‘liq holda shakllantirishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuvda ta‘lim mazmuni, metodlari va shakllari kasbiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy reabilitatsion faoliyatda funksional yondashuv quyidagi asosiy funksiyalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi:

- diagnostik funksiya;
- reabilitatsion-tiklovchi funksiya;
- profilaktik funksiya;
- kommunikativ funksiya;
- tashkiliy va koordinatsion funksiya;
- reflektiv funksiya [4,64-72].

Mazkur funksiyalarni samarali amalga oshira oladigan mutaxassisni tayyorlash uchun ta‘lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta‘minlanishi lozim.

Funksional faoliyatda ijtimoiy reabilitatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari o‘ta darajada murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u shaxsning jamiyatga to‘laqonli moslashuvini ta‘minlashga qaratilgan. Bu faoliyat psixologik, pedagogik, tibbiy va ijtimoiy choralarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur faoliyatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- individual yondashuv zarurligi;
- muammoli vaziyatlar bilan ishlash;
- fanlararo hamkorlik;
- yuqori darajadagi empatiya va mas‘uliyat;
- tezkor va moslashuvchan qaror qabul qilish.

Shu sababli talabalarni ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga tayyorlashda faqat nazariy bilimlar yetarli bo‘lmaydi, balki real amaliy vaziyatlarni modellashtiruvchi ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish muhimdir.

Funksional yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim texnologiyalari talabalarning kasbiy funksiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratiladi. Ushbu texnologiyalar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

### **1. Muammoli ta‘lim texnologiyasi**

Muammoli ta‘lim texnologiyasi talabalarni real ijtimoiy vaziyatlarga yaqin muammolar asosida fikrlashga undaydi. Bu jarayonda talabalar muammoni tahlil qiladi, yechim variantlarini ishlab chiqadi va optimal qaror qabul qiladi.

### **2. Keys-stadi (holatli tahlil) texnologiyasi**

Keys-stadi texnologiyasi ijtimoiy rehabilitatsion amaliyotdan olingan real yoki modellashtirilgan holatlarni tahlil qilishga asoslanadi. Bu texnologiya diagnostik va reflektiv funksiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

### 3. Loyiha asosida o‘qitish

Loyiha texnologiyasi orqali talabalar muayyan ijtimoiy muammoni hal etishga qaratilgan rehabilitatsion dasturlarni ishlab chiqadilar. Bu texnologiya tashkiliy va rejalashtirish funksiyalarini shakllantiradi.

### 4. Rol o‘yinlari va treninglar [5, 267-274 bet]

Rol o‘yinlari ijtimoiy ishchi va mijoz o‘rtasidagi muloqotni modellashtiradi. Ushbu texnologiya kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

### **NATIJARLAR.**

Funksional yondashuvga asoslangan ta’lim texnologiyalarini joriy etishda quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- o‘quv rejalari va dasturlarini qayta ko‘rib chiqish;
- amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish;
- ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish;
- ijtimoiy muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- reflektiv tahlil asosida baholash tizimini joriy etish.

Mazkur mexanizmlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligi oshiriladi va talabalarning kasbiy tayyorgarligi mustahkamlanadi [6,38-42].

### **MUHOKAMA.**

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, funksional yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar:

- kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- amaliy faoliyatga tez moslashadi;
- ijtimoiy mas’uliyat va empatiya darajasi oshadi [7, 45-52].

Tajriba-sinov ishlari natijalari funksional yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv o‘quv jarayonini real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirib, talabalarni nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Xususan, talabalar kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lib, muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tushunish va maqbul yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qildi. Talabalar turli vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, tanqidiy fikrlashga va o‘z qarorlarining oqibatlarini baholashga o‘rganishdi.

Shuningdek, funksional yondashuv talabalarning amaliy faoliyatga tez moslashishini ta’minladi. O‘quv jarayonida real hayotga yaqin topshiriq va vaziyatlardan foydalanilishi ularning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini kuchaytirdi. Natijada talabalar mehnat

bozoriga moslashuvchan, tashabbuskor va faol mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratildi [8, 161-163.]

Muhimi, ushbu yondashuv ijtimoiy mas’uliyat va empatiya darajasining oshishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Jamoaviy ishlar, muhokamalar va rolli vaziyatlar orqali talabalar boshqalarning fikrini hurmat qilish, hamkorlikda ishlash va ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaslik ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari funksional yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi hamda uni oliy ta’lim tizimida keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatadi.

Bu esa ularning ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga tayyorligini sezilarli darajada oshiradi.

### **XULOSA VA TAVSIYALAR.**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida funksional yondashuvga asoslangan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini real ijtimoiy-reabilitatsion vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirib, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lashga xizmat qiladi [10, 194-203].

Tajriba-sinov ishlari davomida funksional yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar tomonidan kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarda mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bilan samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, talabalarning amaliy faoliyatga tez moslashuvi, empatiya va ijtimoiy mas’uliyat darajasining oshishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari funksional yondashuvga asoslangan ta’lim texnologiyalari ijtimoiy reabilitatsiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik jarayon samaradorligini oshiruvchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarligini kompetensiyaviy asosda shakllantirishga xizmat qilib, ularning kelgusida ijtimoiy reabilitatsion faoliyatni samarali tashkil etishiga mustahkam zamin yaratadi [9, 67-71].

### **Xulosalardan kelib chiqib quyidagicha tavsiyalar berish mumkin:**

1. Ijtimoiy reabilitatsion faoliyatga mutaxassislarni tayyorlash jarayonida funksional yondashuvga asoslangan ta’lim texnologiyalarini o‘quv rejalari va fan dasturlariga tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiq.

2. O‘quv mashg‘ulotlarida real ijtimoiy-reabilitatsion vaziyatlar, keys-stadilar, rolli o‘yinlar va muammoli topshiriqlardan keng foydalanish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi .

3. Ta’lim jarayonini ishlab chiqarish amaliyoti va ijtimoiy reabilitatsiya muassasalari bilan integratsiyalash orqali talabalarning real ish sharoitiga moslashuvchanligini kuchaytirish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. 2020 yil 23 sentabr O‘RQ-637. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. <https://lex.uz/ru/docs/4545887>

3. Muxamedov Sh.M. Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion metodlar(Texnologik ta’lim yo‘nalishida)// “Yangi O‘zbekistonda ilm fanning so‘nggi yutuqlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Buxoro. 2023 yil. – 746-749 b.

4. Shodmonova Z.B. Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik zaruriyat. Nukus Mu‘allim ham uzliksiz bilimlendiriy. 2023 yil 6/6, 64-72.

5. Djalolova D. F. Ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilgan talablar va pedagogik jarayondagi qoidalar. Образование и инновационные исследования (2021 год №7). 267-274 bet

6. Жумаев А.Ш.. Педагогик технологияларни таълим жараёнидаги ўрни ва уларни қўллаш билан боғлиқ муаммолар // Педагогик таълим. – Тошкент, 2014. - № 4. 38-42 bet

7. Йўлдошев Ж. Ф. Янги педагогик технология: йўналишлари, муаммолари, ечимлари. – Халқ таълими журнали, 1999, №4. 45-52 bet

8. Muxamedov Sh. M. Mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning ilmiy-metodik asoslari. Образование и инновационные исследования (2024 год № 6). 161-163 bet

9. Nurjanova R. U. Funksional yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish ijtimoiy- pedagogik zaruriyat sifatida. Образование и инновационные исследования (2024 год № 5). 67-71 bet. <http://interscience.uz>

10. Sarsenbayeva R. M. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati – davr talabi. Analytical Journal of Education and Development. Volume: 03 Issue: 10 | Oct-2023. 194-203 bet